

FILOLOGIYA

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich

Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

“MASNAVIYI MA’NAVIY”NING MAVZULAR MUNDARIJASI VA TUZILISHI

Annotatsiya. Maqolada Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy ma’naviy”sida mavzular mundarijasi xususida fikr bayo etilgan. Bugungi davrda asarning o‘zbek tiliga o‘girilishiga xizmat qilgan lingvostistolistik va lingvokulturologik vositalarni hamda ularning qo‘llanish xususiyatlarini belgilash, tarjimalar qachon va kimlar tomonidan amalga oshirilgani, tarjimaning eng optimal ifoda yo‘llarini bayon etish, milliy-madaniy leksik birliliklarning ekvivalentligi va adekvatligini ta’minlash, transformatsiya asosida berish usullarini aniqlash har qachongidan ko‘ra dolzarbdir.

Kalit so‘zlar. Asar, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tasavvuf bilimdoni, rivoyat, ishqiy qissa.

ТЕМАТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРА “МАСНАВИ МАЬНАВИИ”

Аннотация. В статье изложено содержание тем в “Маснави духовном”Джалалуддина Руми. На сегодняшний день как никогда актуально определение лингвостилистических и лингвокультурологических средств, послуживших переводу произведения на узбекский язык, а также особенности их применения, когда и кем осуществлялись переводы, определение наиболее оптимальных путей выражения перевода, обеспечение эквивалентности и адекватности национально-культурных лексических единиц, определение способов передачи на основе трансформации.

Ключевые слова. Произведение, литературоведение, Лингвистика, мистика, повествование, романтическая повесть.

THEMATIC CONTENT AND STRUCTURE OF “MASNAVI MANAVIYA”

Annotation. The article describes the content of the topics in the *Masnavi Spiritual* *Jalaluddin Rumi*. Today, it is more relevant than ever to determine the linguistic and cultural means that served to translate a work into Uzbek, as well as the specifics of their use, when and by whom the translations were carried out, to determine the most optimal ways of expressing the translation, to ensure the equivalence and adequacy of national cultural lexical units, to determine the methods of transmission based on transformation.

Keywords. Literary criticism, Linguistics, mysticism, narrative, romantic novel.

Jahon adabiyotida umuminsoniy qadriyatlar va inson ma’naviy kamolotini vasf etgan asarlar hamisha butun bashariyatning mulki sifatida e’tirof etib kelinadi. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyoti va uning ijodkorlari asarlariga bo‘lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Shu bois asar g‘oyasi va falsafasining jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, uning tarjimasiga ehtiyojni tug‘dirgan ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash hamda tarjima saviyasini baholash tarjimashunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Qayta-qayta tarjima qilingan asarlarning universal va paradigmatic jihatlarini ochish esa dunyo

42 tarjimashunosligi taraqqiyoti bilan bog‘liq ko‘plab muammolarning yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tarjimashunosligi tarixidan ma’lumki, badiiy va falsafiy yuksak asarlar tarjima tufayli ko‘plab milliy adabiyotlarda poetik mazmun va shakl yangilanishlariga yo‘l ohib, uning yanada yuksalishiga zamin yaratgan. Sharq mutafakkir shoirlarining, xususan, Hofiz Sherazi, Umar Xayyom, Sa’diy Sherazi, Alisher Navoiy, Abdulqodir Bedil kabi so‘z daholarining asarlari falsafasi, ohangi va tuzilishiga monand G‘arb adabiyotida yangi sharqona janrlar paydo bo‘lgani shu sabablidir. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” shoh asari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Asarning o‘zbekcha tarjimalarini qiyosan tadqiq etish, manzumada ifodalangan umuminsoniy qadriyatlarning badiiy talqinini maxsus o‘rganish foydadan xoli emas.

“Masnaviyi ma’naviy” asarining vujudga kelishi bilanoq dunyo xalqlari tomonidan badiiy so‘z san’ati sifatida kutib olindi. Rumiyshunoslari bu asarni “Forsiy Qur’on”, “Tasavvuf qomusi”, “Ma’naviyat dengizi”, “Dunyoning kitobi” kabi nomlar bilan ham ulug‘laydilar. Mazkur badiiy yaratmadan zavqlanish, unda ifodalangan umumbashariy fazilatlardan ibrat olish, Rumiy misralari bilan o‘z xalqini oshno etish qutlug‘ an’anaga aylandi. Balxda tug‘ilib, Rumda balog‘at pillapoyalariga ko‘tarilgan bu ulug‘ shayxning dovrug‘i G‘arbda ham keng yoyildi. Natijada “Masnaviyi ma’naviy” ta’sirida yaratilgan yoki uning hayotbaxsh nafasi ufurib turadigan juda ko‘p badiiy durdonalar maydonga keldi.

Ana shu yo‘nalishda “Masnaviyi ma’naviy”ga sharh yozish, uni nasr yoxud nazmda to‘la yoki parchalar holida boshqa tillarga o‘girish an’anasi ham turadi. Mazkur “Masnaviyi ma’naviy”ni g‘arb olamiga tanishtirishda J.Hammer, J.Rodhouz, N.Vinfeld, R.Nikolson, Artur Jon Arberri, Uilyam Jons, Jeffri Xauser, Klement Huart kabi qator olim va mutarjimlarning xizmati katta bo‘ldi.

Buyuk shoir, tasavvuf bilimdoni Jaloliddin Rumiy butun jahonda “Mavlaviy”, “Mavlono”, “Mavlono Rumiy”, “Jaloliddin Muhammad Rumiy”, “Mavlono Rumiy Balxiy” nomlari bilan shuhrat topgan. Dastlab “Xomo‘sh”, “Xamush” va “Xomush” taxallusi bilan ijod qilgan. Ustozi Shamsi Tabriziy nomi bilan g‘azal yozgan va Rumiy nomi bilan butun dunyoda ma’lum va mashhur bo‘lgan.

Rumiy manzumani yaratar ekan, ba’zan ilhomni jo‘sh urib, baytlarni badihago‘y tarzida bayon qilaveradi, shogirdlari esa yozib olgan. Olti daftar – kitobdan iborat asarning har birida qisqacha muqaddima bor. Muallif o‘z maqsad va muddaosini kitobxonga yetkazish uchun rivoyat, hikoyat asosida shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat bilan bog‘liq, odob, axloq va o‘zlikni anglash xususida fikr-mulohazalar yuritgan. Yanada soddarroq tushuntirish maqsadida, mavzudan chetga chiqib, o‘zining hayotiy kuzatuvlarini ifodalaydi. Xuddi bobo nevarasini tarbiyalagandek pandu nasihatlar qiladi. Keyin yana avvalgi mavzu yo rivoyatga qaytib, uning mohiyatini, ilmiy va ma’rifiy jihatlarini ohib beradi. O‘zining buyuk g‘oyalari orqali insonlar qalbiga kirib borib dardlariga malham bo‘ladi.

“Masnaviyi ma’naviy” asari aniq bir syujetdan iborat emas. Adib hikoyat ichida hikoyat, rivoyat ichida rivoyat, sura ichida oyat, hadis tarkibida xalq maqollar, xalqona masallar va hokazolarni keltirish bilan o‘z maqsadini kitobxonga yetkazadi. Bu haqda tojik adabiyotshunosi Rasul Hodizoda yozadi: “Masnavī” monandi digar asarhoi falsafī yo dostonhoi sīfiyonai Sanoī va Attor soxti kompozitsionii muayyan nadorad. Muallif mas’alahoi qudogonaro bo tartibi muayyan ba bobu faslho qudo nakardaast. Az hamin sabab doir ba yak mas’ala fikru muhokimaronihoi ýro dar har choi “Masnavī” paydo kardan mumkin ast”. Mazmuni: “Masnaviy” boshqa falsafiy asarlarga o‘xshab, yo Sanoiy va Attorning so‘fiyona dostonlari kabi biron aniq kompozitsion syujetga ega emas. Muallif masalalarni badiiy tasvirlar ekan, aniq bir tartibga riosa qilmaydi va bob, fasllarga ajratmaydi. Shu sabab uning bitta masalaga doir fikrini yo muhokamasini “Masnaviyi ma’naviy”ning har qaerida ko‘rish mumkin.

Najmiddin Komilov bu xususda yozadi: “Biz tajriba tariqasida “Masnaviyi ma’naviy”ning hikoyatlarini nasriy tarjima qilib, ularning ma’nolarini talqin etishga urinib ko‘rdik. Zotan Rumiyning o‘zi ham hikoyatdan falsafiy talqinga va undan yanada hikoyatga o‘tish usulidan ustalik bilan foydalangan”.

Jaloliddin Rumiy ba'zan masal yo munojot aytib, ba'zan buyuk shayxlar hayotiga murojaat qilsa, ba'zan oilaviy muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatadi. Goho masal orqali maqsadini ifodalash bilan xalqona rivoyatlardan foydalanadi. Eng qizig'i, yuz yillar davomida xalq og'zaki ijodiyotida vujudga kelgan maqollarni ham o'z o'rnida qo'llay oladi, shu orqali odamlarni sabr va qanoatga da'vat etadi. Ba'zan oilaviy mutanosiblik haqida gapirib, har bir kishi o'z tengdoshi yo ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan teng kishi bilan oila qurishi kerak degan xulosalarga keladi. Aks holda, xizmatkorning o'z xo'jayini qiziga ko'ngil qo'yib balolarga giriftor bo'lgani kabi noxush holatlar bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi. Ayrim hikoyatlarda nokas ayollar, oiladagi kelishmovchilik, nafs balosiga mukkasidan ketganlar, o'z aybini ko'rmasdan birovning aybini qidirganlar holati ham badiiy vositalar orqali tasvirlanadi.

Adib, ko'pincha, mo'min bilan munofiqning farqi borligini badiiy ifodalaydi. (Birinchi daftardagi "To'ti va baqqol" hikoyatida bu masala badiiy tasvirlangan). Adib hayotiy kuzatuvlari asosida kelajak avlodni tarbiyalash maqsadida birovning hayoti ikkinchi inson uchun darsxona vazifasini o'tashini badiiy tasvir etadi. Bu uchun turli rivoyat, ishqiy qissa, dinlararo nizolar, shohu vazirlarning saroydagagi ziddiyatlari haqidagi hikoyatlar, Muqaddas kitoblardagi payg'abarlar hayoti qissalari, qadimiy kitoblar, jumladan, "Kalila va Dimna"dagi masallardan, hayvonlar hayoti va o'rmonzordagi hukmron sher bilan bog'liq qissalar mezonidan foydalanadi. Shuningdek, rivoyat va qissalar orasida axloq-odob haqida, odam, olam, Alloh bilan bog'liq hikmat va pandu nasihatlarni ham o'z o'rnida qo'llaydi. Ba'zan hayotda tavakkul qilish, shukrona aytish, qiyinchiliklarga sabr qilish, birovning haqini yemaslik, shayton vasvasiga berilmaslik kabi holatlarni tasvirlaydi.

Muallif birinchi kitobda 173 hikoyat keltirgan bo'lib, ular 4018 bayt (8036 misra)ni tashkil etadi. Asar debochadan boshlanadi. U 35 bayt (70 misra)ni tashkil etadi. Shoир debochada nay timsoli orqali asl manbaidan uzilgan insonni tasvirlagan. Debochadan so'ng podshohning ovga chiqib ketishi, yo'lda kanizakka oshiq bo'lib, uni sotib olib kelishi, kanizakning kasal bo'lishi va davolanishi haqidagi hikoyat keltiriladi. Shoирning maqsadi zaminiy ishq zamirida ilohiy ishq borligini ta'kidlashdir. Hikoyatda haqiqiy ishq faqat Allohga, ikki inson orasidagi ishq, vaqtinchalik ekanligi badiiy talqin etilgan. Adib "Baqqol va uning to'tisi" haqidagi rivoyatda mo'min va munofiq kishining farqi borligini qayd qilib. So'ng dinlararo ziddiyatlarni qalamga olib, dinni niqob qilib ko'pchilikning o'limiga sabab bo'ladigan odamlar borligini asoslab, badiiy tasvirlaydi. Nasroniylarning xatti-harakatlarini tasvirlar ekan, qadimiy arab qissasi "Layli va Majnun"ga murojaat qiladi. Qissadan hissa shuki, Laylini qora deb kamchilik izlama, balki uni Majnun ko'zi bilan ko'r, deb ta'lim beradi shoир. Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning "Injil"da ulug'lanishi, u zotning nomlarini mazax qilib gapirgan kishining og'zi egri bo'lib qolganligining ham badiiy ifodasi berilgan. Shoир qadimiy kitob "Kalila va Dimna"dan ilhomlangan holda to'satdan yovvoyi hayvonlar bilan bog'liq qissalarga murojaat qiladi. Har qanday kishini nafsi va jahli tubanlikka olib boradi, deb sher o'z jahlining qurboni bo'lganligini "Tovushqon va arslon" hikoyatida badiiy tasvirlab, o'quvchini hushyorlikka chorlaydi. Nafs barcha noxushliklarning sababchisi ekanini Payg'ambarimiz(s.a.v.)ning "Kichik jihoddan qaytdik, endi katta jihodga o'tamiz" hadislari bilan dalillaydi. Katta jihod insonlarning nafsi qarshi kurashish ekanligini badiiy ifodalab, "Tasavvuf nima?" degan savolga "Tasavvuf nafs lazzatlaridan voz kechish"dir, deb javob beradi.

Mavlono Rumiyning fikricha, jamiyatdagagi har bir kasb o'z joyida kerak. Hech qachon birovning kasbini kamsitish yaramaydi. Olim ham, qorovul ham o'z o'rnida kerakdir. Xudo bandalarini turli kasb - hunar orqali rizqlantiradi. Birov boshqasining hunaridan bexabar bo'lsa, zarari yo'q. Shuningdek, "mening kasbim" zo'r deyish ham adolatdan emas. Shoир shu maqsadini "Nahviy va kemachi" hikoyati orqali tasvirlashga muvaffaq bo'lgan.

Shoir "Arslon va tulki" qissasiga murojaat qilar ekan, kattalarning oldida kichiklar o'z haddini bilishi lozimligini uqtiradi. "Masnaviyi ma'naviy"dagi "Ul haqdakim, birov do'st eshigini qoqdi" sarlavhasi ostida ichkaridagi do'st tashqaridagi do'stiga "Sen kimsan?" deb so'raganida, "menman" deb javob berishi, ichkaridagi do'st esa "men"degan do'stim yo'q deyishi orqali

44 ijodkor vahdati vujud ta'limotining mohiyatini olib beradi. "Tavhid" sarlavhasi ostida fikrini yanada boyitadi.

Nuh (a.s.) bilan o'z qavmi orasidagi ziddiyatlarni: "Ey zalolatga botganlar, men ila tortishmanglar, men ila tortishsangiz, Parvardigor ila tortishgan bo'lursiz" fikri ostida Allohning Payg'ambarlariga ishonish kerakligi aytilgan. Odamlarni payg'ambarlar to'g'ri yo'lga solsa, podshohlar xato qilmaslik uchun tariqat ahli bilan suhabatdosh bo'lishi lozim.

Inson ba'zan g'aflatda qoladi. Ammo harakati natijasi ba'zan yaxshilik bilan yakunlansa, ba'zan yomonlik yoki ko'ngilxiralik bilan tugaydi. Shunday tabiiy holatni "Kar kishining kasal qo'shnisidan ahvol so'ragani" sarlavhasi ostida tasvirlaydi.

Rumiy har bir rivoyat va hikoyat orqali kitobxonni o'zlikni anglashga chorlaydi. O'z ta'limotini olg'a surib, axloqiy poklanishga undaydi. Go'zal va yuksak she'riy san'atlar orqali hayot saboqlarini o'quvchiga yetkazadi. Bebaho ne'mat – umrni shaklparastlikdan voz kechib, ma'no va mazmunga intilib yashashga da'vat etadi.

"Masnaviyi ma'naviy"ning ikkinchi kitobi 113 sarlavhadan iborat bo'lib, Hazrat Umar (r.a.) davrida odamlar xayolni hilol deb bilgani qissasi bilan boshlanadi. So'ng jamiyattdagi illatlardan biri o'g'irlik bilan bog'liq rivoyat beriladi. Iso (a.s.) payg'ambar davrida bir kishi ul zotga suyaklarni tiriltirishni o'rgat, deb murojaat qilishi, so'fiy va uning eshagi bilan bog'liq rivoyatlar keltirilgan. Kitobxon bir qissa yo hikoyatni o'qib, uning zohiriyl tomoniga e'tibor berib, botiniga e'tiborsizlik qilishi tanqid qilinadi.

Har qanday zamон va jamiyatda xasis va muflislar bo'lган va bo'ladi. "Qozining odamlari bir muflisni sudrab shahar aylantirgani" rivoyatida mazkur mavzu badiiy ifodasini topgan. "Masnaviyi ma'naviy"da bir nechta "masal" keltirilgan bo'lib, ulardan birida bir g'aribning uy izlagani tasvirlangan. Bu mavzu bugungi kunda ham o'z qimmatiini yo'qtgani yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Har qanday jamiyattdagi illatlardan biri insonlarning munofiqligi yo ikkiyuzlamachiligidir. Shu mavzu "Podsho yangi sotib olgan ikki qulni qanday imtihon qilgani" hikoyasida ikki do'stdan qaysi birining niyati pok va qaysi birini niyati nopliligini bilish qiyin ekanligi badiiy ifodasini topgan.

Asarda boshqa shayxlar qatori Zunnun Misriy (r.a.) bilan bog'liq bir qancha qissalar ham berilgan.

Ma'rifatli, dono va aql-zakovat egalari doim shukur qilib, hissiyotga berilmasdan qiyinchiliklarni yengib o'tadi. Mavzuga daxldor "Xo'jası Luqmonning ziyrakligini imtihon etgani" rivoyatida mazkur masala o'z yechimini topgan. Luqmonning xo'jası nima tanovul qilsa ham, avval Luqmonga berib, u yeganidan keyingina o'zi yer ekan. Bir kuni xo'jası bozordan bir dona qovun olib uyga kelibdi va uni Luqmonga kesib bersa, Luqmon ishtaha bilan yeb qo'yibdi. Qovundan faqat bir tilim qolganda xo'jası o'zim ham tanovul qilay desa, u zahardek achchiq ekan, xo'ja behush bo'lib yiqilibdi. Shunday so'ng Luqmondan nega bunday achchiq qovunni yeganini so'rasha: "Shuncha yil qo'lingizdan shirin narsa yeb keldim. Endi bir marta achchiq narsa yeganim uchun sizdan xafa bo'laymi?" degan ekan. Xulosa, hayot doim ham insonga yoqimli vaziyatlarni taqdim etavermaydi, ba'zan qiyinchiliklar ham bo'ladi. Inson har ikkalasiga ham sabrli bo'lishi kerak, degan xulosa beriladi.

Sadoqat, o'zaro hurmat, do'stlik, ehtirom izzat va ikrom kabi odamiylik fazilatlari insonga xosdir. Faqat ma'rifatli hamda aqli odamdan ezgulikni kutish mumkin. Ya'ni hamma o'z jinsi bilan suhabatdosh bo'lib umr kechirsa, albatta murodiga yetadi. Buning aksini qilsa, ayiq bilan do'st tutingan insonga o'xshab halok bo'lishi mumkin. Mazkur masala "Bir odam ayiqning xushomadiga uchib, undan sadoqat kutgani" rivoyatida badiiy ifodasini topgan.

Odamlarning dilini, qalbini, ko'nglini ziyyarat qilish Ka'ba ziyyaratidan ustun turishi ahli ma'rifatga yaxshi ma'lum. Adib "Bir shayxning Boyazidga, men Ka'baman, atrofimdan aylanib, meni tavof et, degani" qissasi tarkibida xuddi shu g'oya badiiy ifodasini topgan.

Adabiyotda timsollar nihoyatda ko'p, shulardan biri it timsoli. It sadoqat va vafo ramzidir. It qalbi toza va niyati pok insonlarni yaxshi biladi va his qiladi. Qalbi noplak, g'arazlilarni ham sezadi. Rumiy bunday holatlarni "Bir itning ko'zi ojiz gadoga tashlangani" rivoyati bayoni asosida

tasvirlangan.

Odam hayoti yoshlik, o‘rta yosh va keksalikdan iborat. Xususan, odam yoshi bir joyga borib yetganda, uning fe’lida o‘zgarishlar seziladi. Birovning gapini hazm qilolmay, qo‘pollik ham qiladi. Shikoyatlari ko‘payib, har bir narsadan illat izlab, injiqlik qiladi. Insonning ana shu holati ham ijodkor nazaridan chetga qolmagan. “Bir qariyaning xastalikdan tabibga shikoyat qilgani va tabibning unga javob bergani” rivoyatida qariyaning ahvoli tasvirlangan.

Azaldan ijod ahlining diqqatini o‘ziga tortgan mavzulardan biri qashshoqlikdir. Hozir ham odamlar qalbini larzaga keltirib, ularni o‘ylashga majbur qilayotgan nochorlik va moddiy qashshoqlik muammosi bor. Jaloliddin Rumiy xalq dardini chuqur his qilgan holda “Juho va otasining tobuti oldiga tushib yig‘lagan bola qissasi”da bu mavzuga o‘z munosabatini bildirib o‘tgan.

Kibrga berilmaslik, qilmagan ishini qildim deb, o‘zini maqtagan kimsalar ham ijodkor tomonidan tanqid qilinadi. Odamlarning bunday salbiy illati “Bir sichqon tuyaning arqonidan tortib, o‘z-o‘ziga mag‘rur bo‘lgani” hikoyati tarkibida badiiy ifodalangan.

Dunyoda tillar, millatlar juda ko‘p. Rumiy ham “To‘rt yo‘lovchi haqidagi rivoyat”da arab, yunon, fors va turk millatiga mansub kishilar haqidagi rivoyatni keltirib, ajab emaski, mazkur rivoyat orqali kelajak avlodni til o‘rganishga undagan bo‘lsa. Ular bir-birining tilini tushunmaganligi uchun orada janjal, mushtlashuv kelib chiqadi.

Rumiy “Masnaviyi ma’naviy”ning boshidan oxiriga qadar Hazrati Insonni ulug‘laydi. Uning baxtli umr kechirishini istab yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Haromdan hazar qilib, poklik tomon intilishini istaydi. Niyatlarining amalga oshib, baxtli, saodatlari umr kechirishni istasang, luqmai halol tanovul qil, deb o‘git beradi dono shoir. Jamiyatning barqaror bo‘lishligi, duolarning ijobat bo‘lishi ham halol yashash bilan bog‘liqdir. Asarda shu bilan bog‘liq ravishda “Haq taolo Muso (a.s)ga, “Menga pok og‘iz ila iltijo ayla”, deb amr etgani” tafsiri keltirilgan.

Adib ba’zan bir mavzuni bir nechta kitob tarkibida bayon etadi. Shunday mavzulardan biri Majnun va Layli orasidagi ishq hikoyatidir. Birinchi kitobda Laylini podshoh ko‘rib, uncha chiroyli emas-ku degani aks etgan hikoyat bo‘lsa bo‘lsa, uchinchi kitobda “Majnun Layli ko‘yida yurgan itni o‘pib erkalagani” qissasi badiiy ifodasini topgan. Demak, shoir maqsadini o‘quvchiga yetkazish uchun qadimiy ishqiy sarguzashtlardan ham foydalanadi. Shu asosda u ishq, muhabbat va sevgi orqali odam o‘zini va parvardigorini taniydi, degan xulosaga keladi.

Har qanday zamonda ilmu ma’rifatli kishilar, ustozlarning jamiyat rivojlanishida hissasi katta. Bu mavzu ham “Masnaviyi ma’naviy”da badiiy ifodasini topgan. Shoir ustoz-muallimning mashaqqatli mehnati, bolalar bilan ishslashning nihoyatda qiyinligi, muallim va o‘quvchilar munosabati, onalar farzandining taqdiriga befarq emasligi kabi masalalar adib tomonidan qalamga olingan.

Yer yuzida shunday shaharlar borki, ular butun insoniyatning diqqat markazida bo‘ladi. Shunday shaharlardan biri Buxoroi sharifdir. Mazkur kitobda Buxoro bilan bog‘liq bir nechta rivoyat mavjud.

Adiblarning iste’dodiga har qanday zamonda hasad ko‘zi bilan qaraydiganlar bo‘lgan. Ularning ijodiga tosh otib, qadrini pasaytirishga harakat qilganlar. Hatto bunday holatlar muqaddas kitoblar bilan ham ro‘y bergen. Ijodkor “O‘zining aqli qosirligi tufayli “Masnaviyi ma’naviy”ga tosh otuvchilarga javob” degan sarlavha ostida adib ijodiga nisbatan adolatsizlik qilgan kimsalarga javob bergen.

“Masnaviyi ma’naviy”ning to‘rtinchisi kitobi 139 sarlavhadan iborat bo‘lib, “Oshiq” hikoyati bilan boshlanadi. Iso (a.s.) savol berib javob olganligi xususida so‘z boradi.

Oila – muqaddas dargoh. Adib har bir daftarida oilaviy mojarolar xususida fikr yuritadi. Rivoyatlar asosida ularning yechimini ko‘rsatadi. Tojik adabiyotshunosi Rasul Hodizoda asar mavzulari xususida so‘z yuritar ekan, shunday yozadi: “In asar natanho asos’hoi nazarii tasavvuf, balki bis’yor mas’alahoi muhimmi falsafai tabiй va ilohи, fiqh, kalom, siyosati madanй (davlatdorй) va manzilй (oila va munosabati bayni odamon)-ro dar bar giriftaast”. Mazmuni: “Bu asarda nafaqat tasavvufona g‘oyalar, balki ko‘p falsafiy va tabiiy masalalar, fiqh ilmi, kalom ilmi, madaniy maishiy hayot bilan birga siyosat masalalari (davlat boshqarishi masalasi), shuningdek,

46 oila va odamlarning o'zaro munosabatlarini ham qamrab olingan". Bugungi kunda ham oilada eru xotin bir-biriga qilayotgan xiyonatlar tufayli qanchadan-qancha oilalar buzilib, farzandlar yetim qolayotgani birovga sir emas. Kitobxon asarni o'qib o'ylanib qoladi, o'tmishda o'g'rilik bor edi, hozir ham bor, aldash bor edi, hozir ham bor, erkak va ayolning bir-biriga bo'lgan xiyonati bor edi, hozir ham davom etyapti. Faqatgina shakli o'zgargan, xolos. Adib "Xotinini begona erkak bilan tutgan so'fi hikoyati", "Xotinning makr etib, o'ynashi boshiga chodra yopgani" kabi sarlavha ostida bu illatlarni san'atkorlik bilan fosh etgan.

Asarda "Terichining attorlar rastasidan o'tayotib, anbar hididan behush bo'lib yiqilgani" rivoyati keltirilgan. Bu qissadan turlichcha xulosa chiqarish mumkin. Birinchidan, terichining jismini badbo'ylik egallab olgan. Ya'ni yomonlik, ma'rifatsizlik hayotini izdan chiqargan. Ikkinchidan, go'zallik va ezgulikdan xabari yo'q kimsalar hayoti ifodalangan.

"Masnaviyi ma'naviy"ning beshinchi daftari 179 sarlavhadan iborat bo'lib, debochadan so'ng "To'rtta qush olib, ularni oldingda to'pla" oyatining tafsiri" bilan boshlanadi. Bu to'rt qush har biri bir timsol bo'lib, ijodkor ularning mohiyatini sodda va oddiy tarzda bayon etadi. Bular "G'oz – hirs, xo'roz – shahvat, tovus – joh, zog' – niyat"dir. Darhaqiqat, odamzodning niyati hech qachon tugamaydi, hirs odamning rohatini buzadi, shahvatparastlik esa insonni barcha ezgulikdan mahrum etadi.

Har qanday podshoh saroyida dono vazirlar bilan birga, hasadchilar ham bo'lgan. Adib shu rivoyatlar orqali hasad illatini tanqid qiladi va uning zararlari xususida so'z yuritadi. Ijodkor bu masalani "Amir va mirshablar yarim tunda Ayoz hujrasiga kirishgani" rivoyati orqali bayon etadi.

Tavbaning turlari ko'p. Tariqatning birinchi sharti haq yo'liga kiruvchi shaxs, avvalo, tavba qilib, gunohlardan forig' bo'lishi kerak. Eng oliv tavba bu nasuh tavbasidir. Rumiy bu masalani kitobxonga yetkazish maqsadida bir nechta rivoyatlar keltiradi. "Shahbonu Nasuhni takror chaqirgani, tavbasi qabul bo'lgan Nasuh bahona qilib, uning huzuriga bormagani" qissasi tarkibida mavzu mohiyati ochilgan.

Bu kitobda yana shayxlar hayoti bilan bog'liq rivoyatlar mavjud. Jumladan, Shayx Boyazid Bistomi bilan bog'liq qissalar ham badiiy ifodasini topgan. Shoир ayol xonadonni moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlovchi xilqat degan, g'oyani olg'a suradi. Lekin shunday ayollar borki, aldashdan, xiyonatdan va yolg'on gapirishdan qaytmaydi. Bir odam xotiniga go'sht keltirib, kechqurun kabob pishirishini aytib, ishga ketadi, lekin kechqurun uyg'a qaytsa, go'shtdan darak yo'q. Xotinidan so'rasa mushuk yeb ketganligini aytadi. Aslida esa ayolning o'zi go'shtni maza qilib yegan bo'ladi. Shu tariqa shoир oila masalasi nozik masala ekanligini badiiy vositalar orqali kitobxonga yetkazadi.

Asarning oltinchi kitobi 141 sarlavhadan iborat bo'lib, debochadan so'ng "Bir kimsaning voizdan, shahar yaqinida, baland og'ochda o'ltirgan qushning boshi fozilroq, azizroq, ulug'roqmi yoki dumimi, deb so'ragani" bilan boshlanadi.

Rumiy manzumaning barcha kitoblarida bitta mavzu – oila, oiladagi ijtimoiy tenglik, ba'zan qalbdagi istaklarning barchasi ham amalga oshmasligi badiiy vositalar orqali kitobxonga yetkazadi. Jumladan, "Bir hindu qul xo'jasining qizini yashirincha sevib qolgani" rivoyatida aynan, jamiyatda o'z o'rnini bilmagan, ko'ngil istagining qurban bo'lgan kimsa haqida so'z boradi. Xo'jas shunday yo'l tutadiki, qul dunyoga kelganidan pushaymon bo'lib, qizni ko'rishi bilanoq qochadigan bo'ladi.

O'g'rilik mavzusini ijodkor ko'p qissa va rivoyatlar tarkibida bayon qiladi. Bu mavzu "O'g'rilar birovning qo'chqorini o'g'irlab, kiyimlarini ham o'marishgani", "O'g'rilar karvonni talaganda jim turib, so'ngra dod-voy ko'targan posbon hikoyati" kabi sarlavhalar ostida masalaning salbiy tomonlarini tasvirlab, odamlarni to'g'ri yashashga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Masnaviyi ma'naviy" manzumasida adibning hayotdagи kuzatishlari mohirlik bilan hamda turli adabiy vositalar orqali badiiy tasvir etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Мавлоно Чалолуддин Мухаммади Балхӣ. Маснавии маънавӣ. Бар асоси матни Р. Николсон ва муқобил бо нусхаҳои дигар.- Техрон. Нашри замон. 2001. - Сах 727.

2. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. Биринчи дафтар, Иккинчи дафтар, Учинчи дафтар. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. Тузатилган учинчи нашри. –Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2014. – Б. 448.
3. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. Тўртинчи дафтар, Бешинчи дафтар, Олтинчи дафтар. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. Тузатилган учинчи нашри. –Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2014. – Б. 448.
4. Тўхсанов Қаҳрамон. “Маснавий”да халқ мақоллари ва уларнинг таржимадаги ифодаси. Монография. Т.: “Наврўз”. 2019. – Б. 124.
5. Тўхсанов Қаҳрамон. Ж.Румий “Маснавийи маънавий” асарининг ўзбекча таржимаси. Монография. GlobeEdit. 2019. – Б. 150.
6. Тўхсанов Қ. “Маснавийи маънавий” таржималарининг қиёсий таҳлили. Монография. – Бухоро: “Дурдона”, 2020. – 201 б. (10, 3 б.т.)
7. Тўхсанов Қ. “Маснавийи маънавий” – ўзбек тилида. Монография. Globe Edit, 2020. – 237 б. (14,8 б.т.)
8. Tukhsanov, K. R Comparative analysis of “Masnaviyi ma’naviy” translations. Монография. Globe Edit, 2021. – 121 б. (7,2 б.т.)
9. Tukhsanov Kahramon Djamal kamal is an experienced translator. International Scientific Journal ISJ Theoretical, Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 84 published April 30, 2020. Of publication with Impact Faktor. <http://s-o-i.org/1.1TAS-04-84-173>. https://dx.doi.org/10.15863/TAS_950-956 бет.
10. Tukhsanov Kahramon. Folk proverbs in “Masnavi” and their expression in uzbek translation. International Scientific Journal ISJ Theoretical, Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 84 published April 30, 2020 Of publication with Impact Faktor. 301-306 бет
11. Tukhsanov Kahramon Rakhimboevich. THE UNITY OF FORM AND CONTENT IN TRANSLATION. JCR. 2020; 7(17): 5-8.
12. Тўхсанов Қаҳрамон. Жалолиддин Румий «Маснавийи маънавий» асари ўзбекча таржималарининг қиёсий тадқиқи. Монография. GlobeEdit. 2022. – Б. 277.
13. Тўхсанов Қ. Диний иқтибослар таржимасининг икки усули. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2009. – № 1. – Б. 92-94. (10.00.00. № 14).
14. Тўхсанов Қ. Румий ҳикматлари таржималарининг қиёсий таҳлили. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2009. – № 4. – Б. 90-93. (10.00.00. № 14).
15. Тўхсанов Қ. Навоий ижодида Румий даҳоси. – Тил ва адабиёт таълими. – Т., 2009. – № 5. – Б. 52-57. (10.00.00. № 9).